

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7454540>

Soatov Yusuf Xo‘jayor o‘g‘li

Termiz Davlat Universiteti iqtisodiyot va turizm fakulteri

Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasini o‘qituvchisi

soatovyusuf@gmail.com

Telfon raqam: +99888 295 26 25

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hozirgi rivojlangan jamiyatimizda jahonda ekskursiyaga-sayohat-sayrga chiqmagan bironta inson bo‘lmasa kerak degan xulosaga to‘xtalamiz. Ushbu sayrlarning asosiy sababchisi tabiatdagi biologik hilma-xillik, betakrorlik, boyliklar bo‘lgan. Jamiyatdagi dastlabki sayohatlar albatta o‘zga yurt, mamlakatlar haqidagi xabarlar natijasida yuz bergan.

Kalitso‘zlar: Ekskursiya ,Gid , Turistik-ekskursiya xususiyatlari.

Abstract: In this article, we came to the conclusion that in our modern developed society, there is probably not a single person in the world who has not gone on an excursion. The main reason for these walks was biodiversity, originality and wealth of nature. The first trips in the community were made, of course, as a result of news about other countries.

Keywords. Excursion, guide, tourist-excursion features.

KIRISH

Turizmدا turistik-ekskursiya faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining(20.08.1999 y.) 831-1-sonli Qarori bilan qabul qilingan «Turizm to‘g‘risida”gi Qonun bilan muvofiqlashtiriladi. Turistik-ekskursiya faoliyatni boshqarish huquqlari va sharoitlari. Bu huquqiy-me‘yoriy hujjatlarga quyidagi m‘yoriy hujjatlar kiradi: «Standartlash haqida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (25.04.2003y.), O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash” haqidagi Qonuni (28.12.1993y.,1006- XII-sonli).⁴⁵

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ro‘yhatga olgan va O‘zbekiston Davlat standartlashtirish, meteorologiya va sertifikatsiya markazi tasdiqlagan «Turistik xizmatlarni sertifikatlash tartibi (18.03.2000y.), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Turistik faoliyatni litsenziyalash tartiblarini tasdiqlash” (11.11.2003y., 497-sonli) kabi davlat hujjat va qarorlari turistik-ekskursion faoliyatni to‘g‘ri olib borishning huquqiy-me‘yoriy hujjatlari hisoblanadi. Turistik-ekskursiya mahsulotni yaratishni boshqarish sharoitlari. Bu blokda turistik-ekskursiya faoliyatini muvofiqlashtiradigan quyidagi qonun, huquqiy-me‘yoriy hujjatlar mavjud. «Atrof-

⁴⁵ <https://lex.uz/docs/-75375?ONDATE=19.04.2018%2000>

muhitni muhofaza qilish haqida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni, «O‘zbekiston Respublikasining havo kodeksi” (07.05.1993y.), ⁴⁶«O‘zbekiston Respublikasiga turistlarning kirishi va chiqishi tartiblari haqida”gi «O‘zbekturizm” M.Kning 13.09.2004yildagi Qarori bilan tasdiqlangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining «Reklama to‘g‘risida”gi (25.12.1998 y., 724-I-sonli), O‘zbekiston Respublikasi Yustitsiya vazirligi ro‘yxatga olgan «O‘zbekiston Respublikasida mehmonxona xizmatlarini taklif qilishdagi qoidalar” (12.01.1998 y., 389-sonli) ham turistik-ekskursion xizmatlarni olib borish, turistik-ekskursion xizmatlardagi tartib-qoidalarining me‘yorlarini bilishda, ekskursion xizmatlarini amalga oshirishda muhim hujjatlar bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekskursion so‘zi lotincha “ekskursion”-qisqa muddatli safar yoki sayohat, sayohatga jo‘namoq, sayohat qilib kelmoq ma‘nolarini anglatadi. Ekskursion xizmatlarini turizmning yuragi deb ta‘riflashadi. Haqiqatdan ham turist mehmonxonaga joylashganidan so‘ng birinchi navbatda ekskursionga chiqishga harakat qiladi. Ichki turizm barcha davlatlarda ekskursion xizmatlari birinchi o‘rinda turadi. Chunki mamlakat ichkarisidagi aholi turizmning deyarli barcha turlari bo‘yicha doimo ekskursion xizmatlaridan foydalanadi. Shu o‘rinda turist bilan ekskursantni farqlash lozim bo‘ladi, chunki turizmni rejalashtirishda turistning talabi nafaqat ekskursion xizmatlari bilan chegaralanmasdan, balki boshqa ko‘rsatiladigan xizmatlarni ham hisobga olishni taqozo qiladi.

Turist-O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo‘nab ketgan) jismoniy shaxsdir .

Ekskursant-tunab qolmaydigan va ekskursion marshrutida 24 soatdan ko‘p bo‘lmaydigan shaxsning sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy, kasbiy-amaliy, qiziqish, ko‘rish, bilish, tanishish yoki boshqa maqsadlarda sayohatga chiquvchi hisoblanadi. Ekskursion xizmatlari iqtisodiy faoliyatni bajaradi (turistik firma ekskursion marshrutlarini sotishdan daromad oladi, ekskursion a‘zolaridan tushgan mablag‘ hisobiga daromad oladi, gid-tarjimon ish o‘rinlari yaratiladi, ekskursion ob‘ektida turistik infratuzilmalar hosil bo‘ladi);

Ekskursion xizmatlarining g‘oyaviy siyosiy faoliyati vatanning tarixiy meroslari, yangi texnologiyalar bilan tanishishda g‘urur hissi, siyosiy mo‘tadillikni sezish xususiyatlari paydo bo‘ladi. Ekskursion xizmatlarining umumiy ta‘lim berish faoliyati ekskursantlarga universal bilim beradi-tarixiy madaniy meros haqida, ishlab chiqarish haqida, madaniy-ma‘rifiy ma‘naviyat haqida, san‘at haqida, yangi texnologiyalar va hokazolar.

Ekskursion xizmatlari axborot tashish, axborotlar berish faoliyatini bajaradi o‘tmish va hozirgi voqealar, jarayonlar, sivilizatsiya taraqqiyoti, hozirgi rivojlanish, global voqealar, xalqaro integratsiya va boshqalar. Ekskursion xizmatlari insonlarda

⁴⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-55594>

qiziqishni shakllantiradi hayotga qiziqish, yashashga qiziqish, ijodga qiziqish, san'atga qiziqish, yangi texnologiyalarga qiziqish, tarixga qiziqish va boshqalar..

Ekskursiya xizmatlarining ob'ektini baholashda quyidagi mezonlar (talablar) asos qilinib olinadi:

- Ekskursiya ob'ektining bilishni anglatishi, his qilishi hususiyatlari, jozibadorligi, betakrorligi;
- Ekskursiya ob'ektining ma'lumligi, mashhurligi, ekzotikligi, yangiligi;
- Ekskursiya ob'ektining ta'sirchanlik kuchi baholanadi. Bunda ekskursiya ob'ektining o'zining alohida ko'rinishlari va bu ob'ektning atrofdagi ob'ektlarga nisbatan uyg'unligi, mazmundorligi va boshqa jihatlari;
- Ekskursiya ob'ektining hozirda saqlanish holatlari;
- Ekskursiya ob'ektining manzili baholanadi ekskursiya ob'ektiga to'liq qiyinchiliksiz borish, aylanib tomosha qilishning qulayligi, ekskursantlarning to'liq joylashishi, transport to'xtash maydonlarining borligi va boshqalar.

Gid-ekskursiya xizmatlarining boshqaradi.

Gid-kuzatuvchi, gid boshlovchi–turistlar guruhini boshqaradi; diqqatga sazovor joylarga ekskursiya o'tkazadi; ekskursiya mavzusini, marshrutini ishlab chiqadi; mavzu bo'yicha materiallar to'playdi; ekskursiyaning matnini tuzadi, materiallarini hikoya qilib beradi; «gid portfeli»ni taxlaydi; ish jarayoni yuqori darajadagi muloqot madaniyatini talab qiladi.

Gid-kuzatuvchi quyidagi bilim, ko'nikma va malaka talablari ega bo'lishi lozim: tarix, adabiyot, geografiya, iqtisodiyot, siyosat, jurnalistika sohalariga qiziqishi; ekskursiya o'tkazish metodikasi va texnikasini, ekskursantlarga xizmat ko'rsatish tartibini bilishi; kamida ikkita xorijiy tilda erkin muloqot qila olishi; tahlil, mulohaza qilishi; hujjat va materiallar bilan ishlay olishi kerak.

Turizm ekskursiya xizmatlari xizmatlarning qay darajada tashkil qilinganligiga va xizmatlarning sifatiga qarab rivojlanadi. Bunda albatta turizm infratuzilmasidagi texnologiyalarning darajalari ham birinchi navbatga chiqadigan sharoitlardan va asoslardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga turizmdagi asosiy xizmatlarning texnologik-servis darajalari ham ekskursiya xizmatlarining tashkil qilinishiga bog'liq bo'ladi.

Ekskursiya xizmatlari yuqori darajada tashkil qilinib turizm infratuzilmalari ana shu yuqori darajalarga javob bermasa ekskursiya xizmatlarining amalda o'tkazish natijalari yuqori sifat darajalariga erisha olmaydi. Lekin har qanday sharoitda ham ekskursiya xizmatlarining maqsadi va vazifalarini yaxshi anglab olish, yaxshi o'zlashtirib olish turoperator yoki gid tarjimon boshlovchidan talab qilinadi. Ekskursiya xizmatlarining maqsadi va vazifalarini to'g'ri belgilash ekskursantlarda qoniqish, yaxshi kayfiyat holatlarini keltirib chiqaradi va natijada turistik firmaning nufuzi, raqobatbardoshligi ortadi.

Ekskursiya jamoada, guruhlar yoki yakka kishilar ishtirokida ham tashkil qilinishi mumkin. Ekskursantlarning ma'lum sonda bo'lishligi ekskursiyaning mohiyatini belgilaydi. Ekskursiya lotincha- «ekskursio»-qisqa muddatli safar yoki sayohat qilib kelish, sayohatga jo'namoq, sayohatga borib kelmoq ma'nolarini anglatishini mavzuning kirish qismida keltirgan edik.

Rossiyalik yirik mutaxasis B.V. Yemelyanov xulosalari bo'yicha- «Ekskursiya-o'rab turuvchi dunyoni ko'z bilan ko'rib his qilish jarayonidir».⁴⁷ Shuningdek, ekskursiya -atrof muhit voqe'ligini, bizni o'rab turgan tabiiy va moddiy muhitni ko'z bilan ko'rib his qilishdagi maqsadli jarayondir.

I. Ekskursiya xizmatlarini tasniflashda quyidagi belgilarga e'tibor beriladi:

1. Mazmuni bo'yicha;
2. Ekskursantlar tarkibi bo'yicha;
3. O'tkazilish joylari bo'yicha;
4. Harakatlanish vositalari bo'yicha;
5. O'tkazilish shakllari bo'yicha.

II. Mazmuni bo'yicha ekskursiyalar tayyorlash ekskursiyalari va mavzuli ekskursiyalarga bo'linadi. Mavzuli ekskursiyalar ham quyidagi ekskursiya guruhlariga bo'linadi.

1. Tarixiy mavzudagi ekskursiyalar;
2. Xarbiy-tarixiy mavzudagi ekskursiyalar;
3. Ishlab-chiqarish mavzusidagi ekskursiyalar;
4. Tabiashunoslik mavzusidagi ekskursiyalar;
5. San'at yo'nalishlari mavzularidagi ekskursiyalar;
6. Adabiyot mavzularidagi ekskursiyalar;
7. Me'morchilik, shaharsozlik mavzularidagi ekskursiyalar.

III. Ekskursiyalar ekskursiyada qatnashuvchilar tarkibi bo'yicha ham tasniflanadi:

1. Kattayoshdagilarga mo'ljallangan ekskursiyalar (studentlar, ishlab chiqaruvchilar, mutaxasislarvaboshqalar);
2. Har xil yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ekskursiyalar (maktabgacha tarbiyadagibolalar, boshlang'ichsinfo'quvchilari, o'rta va yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallangan)
3. Mahalliy aholi ehtiyojlari va talablariga mo'ljallangan ekskursiyalar;
4. Shaharliklarga mo'ljallangan ekskursiyalar;
5. Chet elliklarga mo'ljallangan ekskursiyalar.

IV.O'tkazilish joylari bo'yicha ekskursiyalar qiyidagicha tasniflanadi:

1. Shaharlarda o'tkaziladigan ekskursiyalar;
2. Shaharlarning tashqarisida o'tkaziladigan ekskursiyalar;
3. Ishlab chiqarish maskanlarida o'tkaziladigan ekskursiyalar;

⁴⁷

<https://www.google.com/search?q=Rossiyalik+yirik+mutaxasis+B.V.+Yemelyanov+xulosalari+bo%E2%80%98yicha>

4. Muzeylarda o‘tkaziladigan ekskursiyalar;
5. Madaniyat saroylarida o‘tkaziladigan ekskursiyalar;
6. Tabiat bag‘rida o‘tkaziladigan ekskursiyalar.


V.Ekskursiyalar o‘tkazilish shakllari bo‘yicha quyidagicha tasniflanadi:

1. Odatdagi ekskursiyalar;
2. O‘quv-uslubiy ekskursiyalar;
3. Ommoviy chiqish ekskursiyalari;
4. Sayr-ekskursiyalari;
5. Konsertlarga ekskursiya.

Yangi gid-ekskursiya xizmatlarini tayyorlash texnologiyalari. Yangi ekskursiya xizmatlarini tayyorlash asosan quyidagi 3 bosqichda bajariladi:


I-Bosqich – Bu bosqichda yangi ekskursiya mavzusi tanlanadi, ilmiy-amaliy manbalar o‘rganiladi, ushbu ekskursiyaning ob’ektlari mavzu bo‘yicha tanlanadi.

II-Bosqich–Bu bosqichda ekskursiyaning marshrutlari ishlab chiqiladi, marshrutdagi ekskursiyalarning texnologik xaritasi, safar trassa pasporti tayyorlanadi, ekskursiyaning dasturi va axborotlar varaqasi ishlab chiqiladi




Ekskursiya xizmatining asosiy faoliyati

III-Bosqich –Bu bosqichda ekskursiya loyihasi himoya qilinadi, marshrut oldindan o‘rganilib chiqiladi, ekskursiya rahbari tayinlanadi, ekskursiyaning gid-boshlovchisi tayinlanadi va ekskursiya loyihasi tasdiqlanadi.



Ekskursiya xizmati ko'rsatishni tashkil qilish

Ekskursiya mazmuni va mohiyati jihatidan ekskursiyachi + ekskursant + ekskursiya ob'ekti bir sxemada bir-biri bilan bog'liq holda bir majmuada ishlashi lozim bo'ladi.




A- ekskursiyachi
 B –ekskursant
 V–ekskursiya ob'ekti

Gid-ekskursiya xizmatlaridan samarali foydalanish

Metodikalari

Ekskursiya xizmatining metodikalari ekskursiyashunoslikning asosiy qismi hisoblanadi. Ekskursiya xizmatlari metodlarining vazifasi ekskursiyashunoslikda va ekskursiya xizmatlarida turizm mutaxassislariga yordam berish hisoblanadi. Quyidagi jarayonda ekskursiyaning maqsadi va ekskursiya jarayonining quyidagi chizmasi ko'rsatilgan.



Xulosa

Xulosa o'rnida:Turizm iqtisodiy sohalar ichida daromad keltirishi bo'yicha yetakchi sohalardan biridir. Mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha ko'pgina ishlar olib borilmoqda. Turizmning asosiy xizmatlaridan biri ekskursiya xizmatlari hisoblanadi. Mamlakatga tashrif buyurgan turist eng avvalo uning tarixi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, tabiat resurslari bilan tanishishni, tomosha qilishni xohlaydi. Ekskursiya o'zining ko'rgazmaliligi, sermazmunligi, daromadliligi, hissiyotliligi bilan insonlarning ruhiy qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

1. Ўзбекистон Республикасининг «Туризм тўғрисида»ги Қонуни. –Т.: 1999 йил 20 август.
2. ««Ўзбектуризм» Миллий Компаниясини ташкил қилиш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 27 июлдаги ПФ480-сонли Фармони.
3. Ахмедов Х.И, Аллабергенов А.А. «Туризм фаолиятини ташкил этиш» Т: 2004. 210 б.
4. Амриддинова Р.С. «Экскурсия ишини ташкил этиш» (Маъруза матни) Самарканд 2008. 88 б.
5. <https://lex.uz/ru/docs/-55594>
6. <https://lex.uz/docs/-75375?ONDATE=19.04.2018%200>